

Zulxumor NARZULLAYEVA,
*O'zbekiston xalqaro islom
 akademiyasi magistranti*

KALOM ILMINING MOVAROUNNAHRGA KIRIB KELISHI



Movarounnahr azaldan ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan ilmiy markaz sifatida dunyoga tanilgan. Bu o'lkadan yetishib chiqqan allomalar turli sohalarda aniq va tabiiy fanlar, falsafa, adabiyot, shuningdek, islom ilmlari – tafsir, hadis, fiqh va kalom yo'nalishlarida o'zlaridan boy ilmiy meros qoldirishgan. Ayniqsa, kalom ilmiga Imom Moturidiy, Abul-Lays as-Samarqandiy, Abul Barakot Nasafiy, Abu Mu'in Nasafiy, Umar Nasafiy, Usmon O'shiy, Nuriddin as-Sobuniy kabi allomalar beqiyos hissa qo'shganlar. Ushbu olimlarning hayoti, faoliyati va ular yaratgan asarlarni o'rganish va ular orqali bugungi kunda mavjud bo'lgan aqidaviy muammolarga yechim topish hozirgi davrning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, buning uchun eng avvalo, Movarounnahrda kalom ilmining kirib kelishi va bunga sabab bo'lgan omillarni o'rganib chiqish lozim.

Ilk islom davrida Qur'on ilmlari hali alohida fan sifatida shakllanmagan edi. O'sha davrda sahobalar ma'nosini tushunish qiyin bo'lgan (mutashobih) oyatlar borasida Payg'ambar alayhissalomga

ko'plab savollar berar edilar. Buning natijasida turli xil ixtiloflar kelib chiqar edi. Jaloliddin Suyutiy "Savn-ul mantiq" asarida ta'kidlashicha, Ibn Abbos shunday degan: "Ixtiloflar avj ola boshlagach, Rasululloh alayhissalom qalblarga shak-shubha tushishiga sabab bo'layotgan mutashobih oyatlar haqida bahs yuritishni keskin taqiqlab qo'yganlar". Ibn Abbosning ta'kidlashicha, "Birinchi bo'lib bu sunnatga xilof ish tutgan Abdulloh ibn Sabig'dir. U Madinaga kelganda mutashobih oyatlar haqida bahs yurita boshladi. Xalifa Umar ibn Xattob uni o'z huzuriga chaqirib ismini so'radi. So'ng, uning buyrug'i bilan Sabig'ni xurmoning qurigan shohi bilan boshi qonaguncha savalashdi. Sabig' turgan joyida tik turaverdi. Chunki, u mutashobih oyatlar haqida bahs yuritishni tark etishga bir necha bor va'da bergan edi. Abdulloh ibn Sabig' shunday dedi: "Agar meni o'ldirishni xohlasangiz chiroyli o'lim bilan o'ldiring". Biroq, Umar uni qo'yib yubordi va Abu Muso Ash'ariyga u bilan hech bir musulmon birga o'tirmasligini tayinladi". Demak, ilk davrlardanoq ayrim aqidaviy ixtiloflar sababli

kalom ilmiga moyillik paydo bo'la boshlagan edi¹.

Kalom ilmi turli aqidaviy masalalarda o'zaro tortishuv va nizolar natijasida yuzaga kelgan turli oqimlarning (xorijiylar, qadariylar, jabariylar, murjiylar) o'zaro olib borgan bahs-munozaralari va boshqa din vakillaridan mazdaizm va xristianlarning ham yuqoridagi oqimlar bilan bo'lgan tortishuvlari natijasida shakllanib rivojlangan. Kalom ilmi bilan mashg'ul bo'lgan diniy ulamolar "mutakallim" deb atalgan. Mutakallimlar aqidaviy masalalarni echishda dalillar bilan bir qatorda o'z tafakkurlari, ya'ni aql-idrokklariga ham suyanib ish tutgan. Naqliy dalillarni keltirganda ham Qur'onni sharhlar ekanlar, uni o'zgacha tarzda tafsir qilgan. Mutakallimlarning Qur'onni bunday shaklda sharhlashlarini ba'zi ulamolar tafsirning "at-Tafsir bir-ra'y" turidan hisoblab, uni tafsir deb atasa bo'ladi, degan fikrga kelgan. Ammo aksariyat ilk islom ulamolari Qur'onni bu shakldagi sharhini tafsir deb atash noto'g'ri, balki uni "ta'vil" deb atash kerak, degan fikrni bildirgan.

Kalom ilmiga oid masalalarni dastlab Ja'd ibn Dirham (743 yil)ning ijodida uchratish mumkin. Ja'd birinchilardan bo'lib, Qur'onning vaqti-vaqti bilan yaratilgan degan konsepsiya hamda insonda iroda erkinligi kabi masalalarni ilgari surgan. Uning fikr-mulohazalarini shogirdi Jahm ibn Safvon (745 yil) davom ettirgan. Jahm ibn Safvon keyinchalik "jahmiya" oqimiga asos solgan².

VIII asrdan boshlab kalom ilmi keng ko'lamda rivojlana boshladi. Natijada Movarounnahrda ham kalom ilmi sekin-asta kirib keldi. Bu mintaqaga islom dini kirib kelishi bilan kalom ilmining ham paydo bo'lishiga zamin yaratildi. Ushbu ilmning o'lkamizda rivojlanishiga ayrim siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning ham ta'siri bo'lgan.

Movarounnahrda Abu Hanifa (699 – 767 yy.) ta'limotining tarqalishi uning hayotlik chog'laridayoq yuz berdi. Bu uning "jizya" (musulmonlar ichida yashab o'z e'tiqodida qolgan kishilardan olinadigan jon solig'i) va u bilan bog'liq bo'lgan siyosat natijasida yuzaga kelgan

vaziyatda tutgan mavqei bilan bog'liq. Shuningdek, Hanafiylikning bu hududda tarqalishida Abu Hanifa shogirdlarining xizmatlarini ham alohida ta'kidlash kerak. Kardariyning fikriga ko'ra, Abu Hanifadan ta'lim olgan va uning ta'limotini Movarounnahrda tarqatgan olimlar quyidagilar: Abu Muqotil Hafs ibn Salim Fazzoriy Samarqandiy, Nasr ibn Abu Abdulmalik Atoqiy, Shariq ibn Abu Muqotil, Ma'ruf ibn Hasan, Yunus ibn Sabih, Is'hoq ibn Ibrohim Hanzaliy³.

Abu Hanifa izdoshlaridan Abu Bakr Juzjoni Samarqanddagi Hanafiylik maktabining rivojiga katta hissa qo'shgan olimlardan biridir. U avval Imom Muhammad Shayboniyning shogirdi Abu Sulaymon Juzjoniyan tahsil olgan, so'ng olgan bilimlarini yoyish maqsadida Movarounnahr markaziga kelgan⁴. Shuni ham ta'kidlash kerakki, u Moturidiyning ustozlaridan biri hisoblanadi⁵.

Tadqiqotchi S. Oqilov bu o'rinda moturidiylik aqidaviy mazhabiga zamin hozirlanishi haqida bahs yuritir ekan, bunda samarqandlik hanafiy qozilarning xizmatini alohida ta'kidlaydi⁶. Chunki, bu omil mazkur mazhabning nufuzini oshirib, turli masalalarga nisbatan fikr bildirayotganda unga suyanish, unda belgilab berilgan qoidalarga rioya etish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu esa, uni rivojlantiruvchi omildir. S.Oqilov hanafiy qozilarning mashhurlarini sanab o'tadi. Jumladan, Muqotil ibn Hayyon (vaf. 767 yildan keyin), Ishoq ibn Ibrohim Hanzaliy Abu Usmon Salim Ibn Abu Muqotil Samarqandiy (vaf. 826 y.), Abu Hafs Umar ibn Abu Muqotil Samarqandiy (vaf. 834 y.), Abu Hafs Umar ibn Ya'qub Amiriy Samarqandiy (vaf. 854 y.), Abu Abdulloh Muhammad ibn Aslam ibn Abdulloh ibn Mug'iyra (vaf. 881 y.), Abu Nasr Iyoziy (vaf. 892 yildan avval) samarqandlik hanafiy qozilardandir. Somoniylar davlatida qozilar hanafiy mazhabi vakillaridan bo'lgani ham uning bu o'lkadagi rivoji qay darajada bo'lganidan dalolat beradi.

¹ S.Oqilov. Kalom ilmi. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matba birlashmasi, 2012. – B. 8.

² O'sha manba. – B. 9.

³ Hafiziddin Muhammad ibn Muhammad Bazzoziy Kardariy. Manoqib Abu Hanifa. – Bayrut: 1981. – B. 514.

⁴ U.Rudolf. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. – T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001. – B. 149.

⁵ S.Oqilov. Movarounnahrda moturidiya ta'limotining shakllanish tarixi. – T.: Movarounnahr, 2012. – B. 81.

⁶ O'sha asar. – B. 18.

X asrga kelib Movarounnahrda mo'taziliylik ta'limotining nufuzi bir qadar ortib, ba'zi hanafiylik ham ular safiga qo'shilgan. Abul Muin Nasafiyning "Tabsirat al-adilla" asarida "Movarounnahrda mo'taziliya ta'limotini qabul qilmagan hanafiylik" iborasining ishlatilishi ham buni tasdiqlaydi. Bu iboraga S.Oqilov shunday izoh beradi: "...bu o'lkada hanafiylik olimlari ikki guruhga bo'lingani ma'lum bo'ladi: 1. Hanafiy mo'taziliylar. 2. Moturidiy tomonidan rivojlantirib tizimga solingan va mo'taziliya fikrlarini rad qilgan hanafiy moturidiylar"⁷.

Movarounnahrda hanafiy mazhabining qabul qilinishidan Moturidiyning zamonigacha bo'lgan davrda hanafiylik ta'limoti rivojini, moturidiylikning aynan qanday zamin ustiga barpo bo'lganini o'rganishda ushbu davrda yozilgan aqidaviy manbalar, ularda ko'rilgan masalalar, turli firqalarga raddiya berish uslublarini tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Abu Hanifa g'oyalarining Movarounnahrda tarqalishida uning imonga oid qarashlari katta o'ringa ega. Movarounnahrda hanafiylik aqidasi o'ldirilgan risolalarning dastlabkisi Abu Muqotil Samarqandiyning (vaf. 823 y.) "Kitob al-olim val-mutaallim" asari bo'lib, u ustoz va shogird o'rtasidagi savol-javob tarzida tuzilgan. Asarni yozishdan asosiy maqsad ustozning (Abu Hanifa) qarashlarini aniq yetkazish va tushuntirib berish bo'lgan. Nemis olimi Rudolf asar bir necha yuz yillar davomida Movarounnahr ilohiyoti uchun muhim manbalardan biri hisoblanganini ta'kidlaydi. Buning isboti sifatida esa moturidiylik ta'limotiga mansub kalom manbalarida undan ko'plab iqtiboslar olinganini aytadi⁸.

Asarning yuksak e'tiborga sazovor bo'lishida uning ravon, sodda tilda yozilgani, murakkab istilohlarni mumkin qadar kam ishlatilgani, savol-javobdan iborat bayon uslubining tanlangani ham muhim ahamiyatga ega. Risolani ilm, imonning ta'rifi, hammaning (farishtalar, payg'ambarlar va insonlar) imonda tengligi, va'd va va'id (mukofot

va jazo), amri ma'ruf va nahiy an al-munkar, imon va gunoh, kufr, muxoliflarga raddiyalar, irjo', xoriijiyalar bilan bahs, ibodat kabi mavzular yuzasidan 46 qismlarga ajratish mumkin⁹.

Nemis tadqiqotchisi U.Rudolf IX asr oxiri X asr boshlarini Movarounnahr ilohiyotining turg'un davri sifatida talqin etadi. Bunga mazkur davrda faoliyat olib borgan Abu Sulaymon Juzjoni, Abu Bakr Juzjoni va Abu Nasr Iyoziy kabi mashhur hanafiy olimlarning kalomga oid biror risolasi bizgacha etib kelmagan, keyingi davr moturidiylik olimlari ham bu davrga oid biror asarni tilga olishmaganini dalil sifatida keltiradi¹⁰. Bizningcha, uning xulosalari biroz mulohazali. Birinchidan, u zikr etgan ulamolardan Abu Bakr Juzjoniyning "Kitob al-farq vat-tamyiz" (farqlash, ajratib olish kitobi), "Kitob at-tavba"¹¹ nomli asarlari, Abu Nasr Iyoziyning esa "as-Sifat"¹² nomli asarlari bo'lganligi haqida ishonchli ma'lumotlar mavjud. Ularning asarlari bizgacha yetib kelmaganligi ular hech qanday asar yozishmagan, degani ham emas. Ikkinchidan, keyingi davr olimlari tomonidan ularning asarlari tilga olinmagan, ulardan iqtiboslar keltirilmaganining sababi Abu Hanifa qarashlarini aks ettirgan "Kitob al-olim val-mutaallim", "Kitob al-fiqh al-absat", "as-Savod al-a'zam" asarlari, "Kitob at-Tavhid" va "Tabsirat al-adilla" kabi moturidiylik ta'limotining shoh asarlarining mavjudligi va ularning shu bilan kifoyalanish bo'lishi mumkin. Uchinchidan, bunda mo'taziliylarning ham mavjud bo'lgani, fiqhda hanafiy ulamolarning ba'zilar aqidada mo'taziliy bo'lgani haqida ma'lumotlar bor. Tabiiyki, ular o'rtasida bahslar bo'lib turgan. Ikki toifa o'rtasidagi bahslarda yangi-yangi fikrlar, dalillash uslublaridan foydalanib borilgan. Bu esa turg'unlik emas, rivojlanishga sabab bo'luvchi muhim omildir.

"Kitob ar-Rad ala ahl al-bid'a va al-ahvo" aqidada yetuk olim, mashhur alloma Abulmuin

⁹ U.Rudolf. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. – T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001. – B. 50-55.

¹⁰ O'sha asar. – B. 84.

¹¹ S.Oqilov. Movarounnahrda moturidiya ta'limotining shakllanish tarixi. – T.: Movarounnahr, 2012. – B. 81.

¹² Abul Muin Maymun ibn Muhammad an-Nasafiy. Tabsirat al-adilla fi usul ad-din: 1990. – I j. – B. 356.

⁷ S.Oqilov. Movarounnahrda moturidiya ta'limotining shakllanish tarixi. – T.: Movarounnahr, 2012. – B. 30.

⁸ U.Rudolf. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. – T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001. – B. 46.

Nasafiyning bobosi Abu Muti' Makhul Nasafiyning (vaf. 930 y.) islom ilohiyotida muhim o'ringa ega bo'lgan asaridir. Shu o'rinda u haqda qisqacha ma'lumot berib o'tishni lozim topdik. Uning hayotiga oid ma'lumotlar deyarli uchramasa-da, manbalarda uning 930 yilda vafot etgani haqida zikr qilinadi. Olimning "Kitob fi at-tasavvuf" ("Tasavvuf haqida kitob"), "Kitob al-lu'luiyot" ("Marjonlar kitobi"; didaktik asar), "Kitob ash-shu'o" (hanafiy fiqhiga oid) nomli asarlar ham ta'lif etgani haqida ma'lumotlar mavjud¹³. Bu esa uning islom ilmlarida yetuk olim bo'lganini tasdiqlaydi. Ba'zi tadqiqotlarda uning fiqhda hanafiy, aqidada esa karromiylardan bo'lgani haqidagi mulohazalar ham uchraydi. Jumladan, tadqiqotchi S.Oqilov uni karromiylar vakili sifatida ko'radi va fikrining isboti sifatida uning iroda erkinligi va imon ta'rifi masalalarida Ibn Karrom g'oyalarini qo'llab-quvvatlaganini aytadi¹⁴. G'arb tadqiqotchisi Mariya Bernard esa uni aqidada ham, fiqhda ham hanafiy bo'lganini aytadi¹⁵. Rudolf olimning aqidaviy qarashlaridagi karromiylikka yon bosishlarni tahlil etgach uni Ibn Karrom izdoshlari safiga qo'shadi. Bizningcha ham bu xulosa to'g'ri bo'lishi mumkin. Zero, imon haqidagi qarashining o'zigina olimning hanafiy aqidasi bo'lmaganini isbotlaydi.

Asarda, avval firqalarning aqidasi berilib, keyin ularga raddiyalar bayon etiladi. Asar tuzilishi quyidagicha:

1. Muqaddima. Bu yerda 72 ta adashgan firqalarning nomi sanab o'tilgan.

2. 6 ta adashgan oqim (ulardan 72 ta firqa ajralgan): haruriylar, rofiziylar, qadariylar, jabariylar, jahmiylar va murji'iyarlarga raddiyalar beradi. Jumladan: haruriylarga imon, Aliga (r.a.) munosabat (ya'ni Ali ular aytganidek "kofir" emas) masalalarida; rofiziylarga Alining (r.a.) maqomi masalasida; qadariylarga qadar masalasida; jabariylarga taqdir, istitoat masalalarida; jahmiylarga Allohning ism va sifatleri, Qur'onning maxluq emasligi masalasida va nihoyat murji'iyarlarga "irjo" masalasida raddiyalar berilgan.

¹³ S. Oqilov. Abul Muin an-Nasafiy ilmiy merosi va moturidiya ta'limoti.. – T.: Muharrir, 2008. – B. 52.

¹⁴ O'sha asar. – B. 53.

¹⁵ M. Bernad. Le Kitab al-radd 'ala l-bida' d' Abu Muti' Makhul an-Nasafi// Annales Islamologiques 16. 1980. – B. 41-44, 49.

3. Keyingi manba Hakim Samarqandiyning (vaf. 953 y.) "Kitob as-savod al-a'zam" asari bo'lib, u Somoniylar davri aqid ilmiga oid rasmiy qo'llanmasi darajasida turgan. Allomaning asl ismi Abulqosim Ishoq ibn Muhammad ibn Ibrohim bo'lib, Abu Nasr Iyoziyning shogirdlaridan bo'lgan. Samarqandda bir necha yillar qozilik lavozimida ishlagan. Tasavvufda katta shuhrat qozongan va "al-Hakim" unvonini olgan. Asarning somoniy hukmdorlar talabiga binoan yozilgani va bu ish aynan unga topshirilgani Hakim Samarqandiyning ulamolar orasida katta nufuzga ega ekanidan dalolat beradi. Mana shu joyda o'rinli savol tug'iladi. Alloma Moturidiy bilan bir davrda, bir hududda yashagani va Moturidiyning undan ko'ra, kuchliroq olim ekanini hisobga olganda, nega hamma uchun yagona qoidalar majmuasi, ya'ni "Kitob as-savod al-a'zam"ni yozish Moturidiyga emas, balki unga topshirilgan. Bu savolga javob berishda tadqiqotchi Sh.Ziyodovning fikrlari muhim ahamiyatga ega¹⁶. Tadqiqotchi buning sababini ikki ilohiyotchilarning hokimiyatga bo'lgan munosabati bilan bog'liqligi bilan izohlaydi. Zero, bu davrda Samarqand ilohiyotchilari Hakim Samarqandiy kabi "hakimlar", Abu Abdulloh ibn Abu Bakr Juzjoni, Abu Mansur Moturidiy, Abu Hasan Rustug'faniy kabi "juzjoniya" maktabi vakillari va Abu Nasr Iyoziy, Abu Ahmad Iyoziy kabi "iyoziya" maktabi vakillariga bo'linib ketishgan va ular o'rtaqidagi o'zaro bahslar kalom rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Hakim Samarqandiy hokimiyatga nisbatan komformistik mavqeda turgan bo'lsa, Moturidiy o'rta qatlam manfaatlarini himoya qilgan¹⁷.

Somoniylar davrida boshqa ilm sohalari kabi islom ilmlari ham shiddat bilan rivojlandi. Ular biror ta'limotni davlat darajasiga ko'tarmasdan, diniy bag'rikenglikka katta e'tibor berdi. Buni 888 – 889 yillarda shofeiylar faoliyatiga rasman ruxsat berilgani, o'lkada noislomiy guruhlarining ham mavjud bo'lgani haqidagi ma'lumotlar tasdiqlaydi¹⁸. Ammo, bu choralar turli firqalar

¹⁶ Sh. Ziyodov. Abu Mansur al-Moturidiy va uning "Kitob at-ta'vilot" asari. – T.: Fan, 2009. – B. 30-31.

¹⁷ Sh. Ziyodov. Abu Mansur al-Moturidiy va uning "Kitob at-ta'vilot" asari. – T.: Fan, 2009. – B. 34.

¹⁸ U.Rudolf. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. – T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001. – B. 112.

o'rtasidagi bahslarni butunlay tugata olmagan ko'rinadi. Zero, Moturidiy kabi mutakallimlar ko'plab firqalar bilan kurash olib borganlar.

Shu yerda "Kitob as-savod al-a'zam"da bahs yuritilgan mavzularni keltirib o'tishni lozim topdikki, bu uning qimmatini oshiruvchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Asar 60 ta fasldan iborat bo'lib, unda imonning ta'rifi, jamoadan ajralmaslik lozimligi, gunohkor-osiylar, ularning hukmi, qazo va qadar, mahsiga mash tortish joizligi, amirga itoat qilish vojibligi, imonning maxluq yoki maxluq emasligi, Qur'onning maxluq emasligi, esxatalogiya (qabrdagi holatlar, qiyomat holatlari, jannat va do'zax), payg'ambarlarning shifoati, me'roj, sahobalar va xalifalar, Allohning sifatlari, Allohni ko'rish, avliyolarning darajalari va karomatlari, "mutashobih" oyatlar tafsiri, vitr, tahoratga oid hukmlar kabi mavzularni o'z ichiga oladi. Yuqoridagi mavzular qatoriga e'tibor berilsa, unda fiqhiy masalalar ham ko'rilgani ma'lum bo'ladi. Buning sababini bir tomondan Abu Hanifa an'anasi, ya'ni, fiqhiy masalani aqoid matniga qo'shib zikr etishlik¹⁹ka sodiqlik (mahsiga mash tortish kabi), ikkinchi tomondan asarga somoniy hukmdorlar tomonidan qo'yilgan talab, ya'ni, hamma uchun yagona qo'llanma bo'lishligi inobatga olingan, deb izohlash mumkin.

U.Rudolf asarda bahs yuritilgan mavzularni ikki turkumga ajratadi. Uningcha, asarda imonning ta'rifi, gunohkorning holati, qadar yoki narigi dunyo hisob-kitobi kabi ko'rib chiqilishi odatiy bo'lgan masalalar hamda Alloh va Uning sifatlari, Qur'onda yaratuvchining qiyofasi, esxatalogiya va taqvo, avliyolarni hurmatlash va zohidlik, sahobalar hurmati, jamoadagi siyosiy munosabat va hatto fiqhning o'ziga xos muammolari bir necha bor muhokama qilinadi²⁰. Bizningcha, bu xulosa bahsli. Zero, u ikkinchi toifaga kiritgan muammolarning aksariyati, "al-Fiqh al-akbar"da ko'rib chiqilgan.

Asarni ko'zdan kechirish chog'ida unda mavzular orasida muntazamlilikning yo'qligi, bir

mavzuning bir necha o'rinda takrorlangani ko'zga tashlanadi. Misol uchun, Hakim Samarqandiy imon to'g'risidagi bahsdan jamoat to'g'risidagi bahsga o'tadi va yana imon to'g'risidagi bahsga qaytadi. Balki, bu o'quvchining diqqatini jalb etishlik maqsadida atayin qo'llangan uslubdir yoki muallifning o'zi bunga e'tibor qilmagan va mavjud aqidalar ichidan to'g'rilarini bir joyga jamlagandir. Shuningdek, buning sababi mazkur davrda va shu hududda kalom ilmiga oid asarlar yozish an'anasi yaxshi rivojlanib ulgurmaganligidan ham bo'lishi mumkin.

IX asrga kelib, Movarounnahrning Buxoro va Samarqand shaharlaridagi diniy muhit butunlay hanafiylashib bo'lgan edi. Shu tariqa Movarounnahr va Xurosonda imon masalasi muhim ahamiyat kasb etganligi sababli hanafiy mazhabiga mansub olimlarning VII – X asrdagi faoliyatlarida kalom masalalari asosiy o'rin egalladi. Demak, Movarounnahrda kalom ilmining shakllanishiga VIII asrdagi siyosiy vaziyatlar sabab bo'lgan. Siyosiy vaziyatlardan kelib chiqib faoliyat olib borgan murjiylar ushbu hududda "imon" masalasini hal qilish orqali kalom ilmining dastlabki rivojlanish bosqichlarini belgilab berdi. Lekin keyingi davrda murjiylar faoliyati umuman yo'qolib ketdi. Movarounnahrda keyingi asrlarda kalom ilmining rivojida Abu Hanifaning aqidaviy fikrlarini davom ettirgan va rivojlantirgan hanafiy ulamolardan Ahmad ibn Is'hoq, Abu Bakr Juzjoni (IX asr), Abu Sulaymon Muso ibn Sulaymon Juzjoni, Abu Nasr Iyodiy hamda Abu Mansur Moturidiy (vaf. 944 yilda) kabi olimlar o'zlarining katta hissasini qo'shgan²¹.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Movarounnahrda kalom ilmining kirib kelishi va rivojlanishida hamda keng yoyilishida Imon Abu Hanifaning shogirdlari hamda III/IX asrda yetishib chiqqan hamda faoliyat olib borgan qozilarning o'rni beqiyos. Shu bois, Xuroson va Movarounnahr o'lkalariga hanafiy qozilarining tayinlanishi va o'lkada hanafiya ta'limoti asosiy o'rinni egallagani bu mintaqada moturidiya ta'limotining shakllanishiga zamin yaratdi.

¹⁹ Qarang: Aqoid ilmlari. Nashrga tayyorlovchi va tarjimon: Shayx Abdulaziz Mansur. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matba birlashmasi, 2006. – B. 25.

²⁰ Qarang: U.Rudolf. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. – T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001. – B. 112.

²¹ Ahmet Ak. Büyük Türk Âlimi Mâtûridî ve Mâtûridilik / Монография. – Istanbul: İnönü Üniversitesi İlahiyat Fakültesi, 2008. – B.77-80.